Agarda, ushbu masala yechimi ijobiy hal etilmasa, IELTS 5+ sertifikatini taqdim qilish uchun 2-3-4 bosqich talabalarga yetarlicha vaqt berilganligini eslatib o‘tamiz.

**3-savol: Hozirgi kunda texnik sabablarga (viloyat hudularida internet bilan bog‘liq muammolar) ko‘ra biz uchun professorlar tomonidan tayyorlangan video darslarni ba’zi talabalar uchun ko‘rish imkoniyati bo‘lmayabti. Savolim shundan iboratki, karantin vaqti tugagach bizga bu darslar yozda qayta qo‘yiladimi?**

**Javob:** Albatda, ushbu fanlar karantin davrida masofaviy ta’lim shaklida Turin politexnika universiteti (Italiya) masofaviy ta’lim dasturiy platformasi orqali talabalarga taqdim etilayotganligi sababli yoz oylarida qayta qo‘yilmaydi. Ayrim hudularda internet bilan bog‘liq muammolar sabab ba’zi talabalar uchun ko‘rish imkoniyati bo‘lmaganligi hisobga olinib, TPU-Italiya “Didattica”  portalidan video darslarni talabalar yuklab olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib beriladi. Bundan tashqari, TTPU rahbariyati tomonidan ushbu video darslar mualiflik huquqini saqlagan holda TTPU axborot resurs markazida saqlash choralari ko‘rilmoqda. Keyinchalik ushbu o‘quv materiallaridan faqat TTPU talabalari to‘laqonli foydalinish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

**4-savol: Bu yili ham TTPUdan O‘zbekiston OTMlariga o‘qishni ko‘chirish imkoniyati bo‘ladimi? Agar bo‘lsa, unda qanday talablar mavjud?**

**Javob:** Talabalarning o‘qishini ko‘chirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyun 393-sonli qaroriga asosan amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda mazkuz qaror asosida "Oliy ta’lim muassasalari talabalarining o‘qishlarini ko‘chirish va qayta tiklash tartibini belgilash to‘g‘risida"gi Nizom tasdiqlandi. O‘qishini boshqa oliy ta’lim muassasiga ko‘chirish istagida bo‘lgan talabalar ushbu Nizom asosida, unda belgilangan talablarga rioya qilgan holda o‘qishlarini ko‘chirishlari mumkin. Xududiy o‘qishni ko‘chirish komissiyasiga talaba ariza bilan murojaat qiladi va o‘zining akademik o‘zlashtirish ma’lumotnomasini taqdim etadi. Ushbu ma’lumotnomani olish uchun talaba universitet oldidagi shartnoma talablarini to‘liq bajargan (kontrakt pulini to‘lagan) va asosiy fanlarni o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

O‘tgan o‘quv yili yakunida akademik qarzdorligi mavjud bo‘lgan talabalarga yordam tariqasida joriy etilgan qo‘shimcha kurslar bu o‘quv yilida tashkil etilmaydi.

**5-savol: 2, 3, 4-bosqich talabalari uchun qo‘shimcha (bir fandan ma’ruza va amaliyot darslari tugatilgandan so‘ng topshiriladigan) imtihonlarga ro‘yxatdan o‘tish jarayoni boshlandi. Bu imtihonlar onlayn tarzda bo‘lib o‘tadimi? Shu masala bo‘yicha ma’lumot bersangiz.**

**Javob:** Barcha fanlardan bo‘yicha ilk imtihonlar may oyining 5, 6, 7-sanalariga mo‘ljallangan. Agarda, Respublikamizda e’lon qilingan karantin vaqti ushbu sanalargacha to‘xtatilsa, imtihonlar odatiy tartibda o‘tkaziladi. Karantin davri cho‘ziladigan taqdirda, imtihonlar onlayn tartibida olinishi mumkin. Bu masalaga universitet rahbariyati tomonidan o‘rnatilgan tartibda oydinlik kiritiladi va natijasi bo‘yicha talabalar e’tiboriga havola qilinadi.

Eslatib o‘tamiz, imtihonda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun 1 va 2-semestr o‘qish shartnoma to‘lovlari amalga oshirilgan bo‘lishi lozim.

**6-savol: Bu o‘quv yilida universitimizga talabalar qabuli qanday bo‘ladi? Qachondan ro‘yxatdan o‘tish imkoni bo‘ladi? Hujjat qabul qilish tartibi va imtihonlar qay tarzda amalga oshiriladi?**

**Javob:** Barchangizga ma’lum Qabul komissiyasi jarayoni har yili iyun va iyul oylariga to‘g‘ri keladi. Universitet Qabul komissiyasi ishini boshlanguniga qadar karantin to‘xtatiladi va qabul jarayoni odatiy holatda o‘rnatilgan tartibda bo‘lib o‘tadi deb umid qilamiz. Ommaviy axborot vositalarini va veb-saytimizni kuzatib boring. Biz, albatta, Qabul jarayoni xaqida batafsil ma’lumotlarni  berib boramiz va e’lon qilamiz.

**7-savol: Yozgi va qishki imtihonlarda bizga faqat 7ta fanga ro‘yxatdan o‘tish imkoni berilganligi tufayli, ayrim talabalarda shu yili bitirish uchun 8-11 ta fani qolgan. Savolim shundan iboratki, shu kabi talabalarga o‘z vaqtida universitetimizni yakunlash uchun qanday imtiyozlar beriladi?**

**Javob:** Ushbu holat yuzasidan, quyidagi imtiyozlar xaqida ma’lumot berib o‘tamiz. Agarda siz 7ta fan bo‘yicha imtihon topshirish uchun ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ushbu fanlarning barchasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirsangiz, imtihon o‘tkazish komissiyasi, sizning o‘zlashtirish darajangizni hisobga olib, topshirishingiz kerak bo‘lgan fanlar soniga qarab, qo‘shimcha imtihonlarga ro‘yxatdan o‘tish imkoniyatini yaratib beradi.

**8-savol: Yurtimizda karantin e’lon qilingani va biz professorlar tomonidan o‘tkaziladigan darslarda qatnasha olmayotganimiz sababli, talabalarga kontrakt to‘lovidan chegirmalar beriladimi?**

**Javob:** Respublikamizda COVID-19 bo‘yicha karantin e’lon qilinganligiga qaramasdan barcha mahalliy va Italiyalik professor-o‘qituvchilar talabalar o‘quv dasturidan ortda qolib ketmasliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 27 martdagi №233-sonli buyrug‘iga muvofiq video mashg‘ulotlar, o‘quv-uslubiy

majmualar, o‘quv adabiyotlarining elektron shakllari, amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar to‘plamini tayyorlab borishmoqda va shu sababli ular olayotgan oylik maoshlarining miqdori o‘zgarishsiz qolmoqda. Bundan tashqari, universitet ta’minoti bo‘yicha ham pullik shartnomalar tuzilgan. Tozalash va obodonlashtirish ishlari davom ettirilmoqda. Qo‘riqlash xizmati ham o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Qo‘shimcha sanitar-epidemilogik ishlari o‘tkazib kelinmoqda. Shulardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, ushbu vaziyatda universitetimiz xech qanday moliyaviy imtiyozga ega bo‘lmadi.

Shulardan kelib chiqib, talabalarga o‘qish uchun shartnoma to‘lovidan chegirmalar berilishi ko‘zda tutilmaganligini ma’lum qilamiz.

Qushimcha ma’lumot sifatida shuni ma’lum qilamizki, Universitet tomonidan turli hil yo‘nalishlar bo‘yicha, ya’ni talabalarning o‘qishdagi faolligi, ilmiy loyihalar doirasida ishlash, qo‘shimcha ilmiy ishlar olib borish bo‘yicha hamda turli hil tadbirlarda faol qatnashib qo‘lga kiritgan yuqori ko‘rsatgichlar chegirmalar joriy etish bo‘yicha dastur ishlab chiqilgan.

**9-savol: Hozirgi kunda bizga professorlar darsliklarni savol-javob tarzida emas, video tarzida taqdim etayotganligi sababli darslarning sifati avvalgidan pastroq. Albatta bu holatni tushunamiz va bizga video darslarni yuborayotgan professorlarga o‘z mintdorchiligimizni bildiramiz. Biroq, bilim olish sifati pastroq bo‘lgani sababli bizlarga imtihonda imtiyozlar beriladimi, ya’ni savollarning darajasi odatdagidan yengilroq bo‘ladimi?**

**Javob:** Savoldan kelib chiqib shuni ma’lum qilamizki, imtihonlarni tashkil qilish jarayonida xech qanday imtiyozlar berilmaydi. Sababi, imtixon savollarini tuzish va ularning sifati buyicha Italiya mutasaddilari mas’uldirlar.

Lekin, video darslarning sifatini oshirish bo‘yicha bir necha

imkoniyatlar mavjud.

Birinchi navbatda, TPU-Italiya www.polito.it portalida, italian professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan ingliz tilidagi video darslar mavjud. Ushbu video darslar hamma fanlardan bo‘lmasada, TTPUda o‘tiladigan darslarning 80% qamrab olgan. Ushbu portal hozirgi kunda asosiy fanlar bo‘yicha video darslar bilan boyitib borilmoqda. Universitetimizda faoliyat ko‘rsatayotgan italian professor-o‘qituvchilar tomonidan tayyorlanayotgan video darslardan tashqari, portalga boshqa professorlar tomonidan tayyorlangan video darslardan ham foydalanish imkoniyati mavjud. Demak, bitta fan kesimida bir nechta boshqa tajribali professorlar tomonidan tayyorlangan video darslardan foydalanish hamda maqulini tanlash imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari universitetimizda faoliyat ko‘rsatayotgan mahalliy professor-o‘qituvchilarimizga siz tomondan bildirilgan e’tirozlar yetkazildi va kafedra mudirlari bilan kelishgan holda, video darslar sifatini oshirishga harakat qilinadi. Ushbu video kurslardan tashqari, darslar so‘ngida savol-javob tarzida Zoom video conference meeting o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish masalasi bo‘yicha ham professor-o‘qituvchilar bilan kelishib olindi. Ayrim professor-o‘qituvchilar ushbu amaliyotni qo‘llashni boshlab yuborishdi.

**10-savol: Biz umid qilamizki yaqin kunlarda virusdan butunlay qutilamiz, ammo karantin muddati cho‘zdirilsa, yozgi imtihonlar qay tarzda amalga oshiriladi?**

**Javob:** Agarda Respublikamizda e’lon qilingan COVID-19 bo‘yicha karantin vaqti cho‘ziladigan, imtixonlar onlayn tartibida olinishi mumkin. Bu masalaga universitet rahbariyati o‘rnatilgan tartibda TPU-Italiya mutasaddilari bilan kelishilgan holda oydinlik kiritadi va natijasi bo‘yicha talabalar e’tiboriga havola qilinadi.

**Aziz talabalar!**

Umid qilamizki barcha sizni qiziqtirgan savollarga javob bera oldik. Savollaringiz uchun katta rahmat!

Internetda, xususan, oʻzingiz tahsil olayotgan oliy taʼlim muassasasining, yaʼni Toshkent shahridagi Turin politexnika Universiteti taʼlim platformasida hamda Turin politexnika universiteti (Italiya) masofaviy taʼlim dasturiy platformasida berilayotgan onlayn darslarga qunt bilan qatnashing!

Karantin bilan bogʻliq tartiblarga, shaxsiy gigiena qoidalariga, jismonan sogʻlom boʻlishga alohida eʼtibor qaratib, tozalikka, pokizalikka rioya qiling!

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev murojaatida ham alohida taʼkidlangan: “Aziz farzandlarim, uyda vaqtingizni bekor oʻtkazmang! Onlayn darslarni qunt bilan oʻzlashtiring. Kitob oʻqing, bilimingizni oshiring, badantarbiya va jismoniy mashqlarni bir kun ham qoldirmang”.

Barchangizga sogʻlik-salomatlik tilagan holda, uyda qolib samarali taʼlim olishingizni va boʻsh vaqtingizni unumli oʻtkazishingizni tilab qolamiz!

*Hurmat bilan, universitet maʼmuriyati.*

---

# COVID-19

## Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti

# Respublikamizda COVID-19 koronavirusga qarshi samarali kurashish, kasallikning Respublikamiz hududiga kirib kelishini oldini olish maqsadida g‘oyalar tanlovini e’lon qiladi!

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti o‘zingizning innovasion g‘oyalaringiz va loyihalaringiz bilan tanlovda ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha g‘oya va takliflar berishingiz mumkin:

1. Fuqarolarning karantin paytida bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil etishda ommaviy axborot vositalarining roli (televideniya, radio, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.);

2. Ishchi-xodimlarning (asosan servis sohalari), talaba va o‘quvchilar uchun karantin paytida mehnat qilish, o‘qitish va dars jarayonlarini masofaviy tashkil qilish choralari;

3. Dezinfeksiya vositalarini qo‘llash va kasallik tarqalishini oldini olish chora-tadbirlari;

4. Koronavirus kasalligini ekspress aniqlash vositalari.

Har bir aktual g‘oya universitet tomonidan qabul qilinib, uni tadbiq qilish uchun barcha choralar amalga oshiriladi.

Tanlovda ishtirok etish uchun g‘oyaning qisqacha tavsifi, muallifning ismi sharifi hamda telefon raqamini telegramdagi @businessincubator manziliga yuborishingiz yo’ki murojaat qilishingiz kifoya!

# DUBAI 2020 EXPO Startap loyihalar va g‘oyalar tanlovi 1-bosqich natijalari

Joriy yilning fevral oyida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti tomonidan 9 ta yo‘nalish bo‘yicha Respublika miqyosida startap loyihalar tanlovi e’lon qilingan edi.

Tanlovning natijalariga ko‘ra, 100 dan ortiq loyihalar kelib tushdi. Jumladan yo‘nalishlar kesmida:

– **Avtomobilsozlik va mashinasozlik – 25 ta loyiha;**

– **Energetika – 5 ta loyiha;**

– **Informatsion texnologiyalar – 18 ta loyiha;**

– **Arxitektura va qurilish – 12 ta loyiha;**

– **Qishloq xo‘jaligi – 27 ta loyiha;**

– **Yengil sanoat – 8 ta loyiha;**

– **Tibbiyot va farmasevtika – 8 ta loyiha;**

– **Sport va jismoniy tarbiya – 3 ta loyiha:**

Tanlov natijalariga ko‘ra universitet mas’ul xodimlari tomonidan dastlab 33 ta loyiha saralab olindi. Jumladan, yo‘nalishlar kesmida:

– **Avtomobilsozlik va mashinasozlik – 10 ta loyiha;**

- **Informatsion texnologiyalar – 12 ta loyiha;**
- **Arxitektura va qurilish – 1 ta loyiha;**
- **Qishloq xo‘jaligi – 3 ta loyiha;**
- **Yengil sanoat – 1 ta loyiha;**
- **Tibbiyot va farmasevtika – 5 ta loyiha;**
- **Sport va jismoniy tarbiya – 1 ta loyiha:**

Saralab olingan loyihalar ularning mualliflari ishtirokida ko‘rib chiqilib, g‘oliblar joriy yilning iyun’ oyida e’lon qilinadi.

---

# Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti vakillarining tashrifi

Joriy yilning 13 fevral kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti vakillari Toshkentdagi Turin politexnika universitetiga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida universitetning 3-bosqich talabalari bilan vakillar uchrashuvi tashkil etildi.

Suhbatni universitet rektori U. Salomov kirish so’zi bilan ochib, talabalarni vakillari va ularning tashrifi maqsadi

bo’lgan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida maxsus fakultet – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti ochilganligi haqida talabalarni tanishtirdi.

So’ng so’z navbati Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti rektori podpolkovnik X.A.Muxitdinov va kafedralar mudirlari podpolkovnik Z.D Tashtaev. va B.V. Nurmetovlarga berildi. Ular talabalar 3-bosqichni tugatgandan so’ng ushbu institutga o’qishga kirish va olti yo’nalish bo’yicha ofitser darajasida ikki yillik taktik taqsil olish imkoniyatlari borligi haqida, shuningdek, institut qulayliklari, fakultetlari va o’qishni tugatgandan so’ng ishga joylashish to’g’risida ma’lumot berishdi.

Taqdimotdan so’ng qiziqqan talabalar qabul, kirish imtihonlari va boshqa savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo’ldilar.













# “Mexatronika va Robototexnika” yo’nalishini modernizatsiya qilish bo’yicha xalqaro loyiha

O’quv va ilmiy ishlarning sifatini oshirish, xorijiy mamlakatlar, xususan Evropa mamlakatlarining tajribasini o’rganish va o’quv jarayoniga tatbiq etish maqsadida Toshkentdagi Turin politexnika universiteti ko’plab tadbirlarni amalga oshirmoqda.

“MechaUZ: Innovatsion g’oyalar va raqamli texnologiyalar

orqali O’zbekistonda bakalavr darajasi uchun mexatronika va robototexnika yo’nalishining modernizatsiyasi” xalqaro loyihasi ham Evropa Ittifoqining Erasmus + dasturining 609564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-SBHE-JP grant shartnomasi asosida universitet tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatdir.

Zamonaviy talablar va takliflarga javob beradigan, zamonaviy o’quv dasturi asosida o’qitiladigan, zamonaviy moddiy-texnik uskunalar va o’quv laboratoriyalari bilan jihozlangan O’zbekiston Respublikasi oliy o’quv yurtlarining “Mexatronika va robototexnika” bakalavriat yo’nalishi bo’yicha kadrlar tayyorlash bo’yicha loyiha 2020-2022 yillarga mo’ljallangan.

Joriy yilning 10-14 fevral kunlari Saloniki shahrida (Gretsiya) Sheffild (University of Sheffield) universitetining xalqaro fakultetida “Kick-off Meeting” loyihasi hamkorlarining birinchi uchrashuvi bo’lib o’tdi. Ushbu tadbirda O’zbekistonning 6 OTMlari, Evropadagi 6 universitet va Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi vakillari ishtirok etdilar.

Loyiha doirasidagi hamkor ta’lim muassasalari:

- **Xalqaro Xellenik universiteti, Gretsiya**
- **Janubiy-Sharqiy Yevropa tadqiqot markazi, Gretsiya**
- **Vilnyus Gediminas texnika universiteti, Litva**
- **Liyepaya universiteti, Latviya**
- **Vidzeme amaliy fanlar universiteti, Latviya**
- **Viana-du-Kashtelu politexnika instituti, Portugaliya**
- **Andijon mashinasozlik instituti, O‘zbekiston**
- **Toshkentdagi Turin politexnika universiteti, O‘zbekiston**
- **Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston**
- **Toshkent axborot texnologiyalari universtiteti, O‘zbekiston**
- **Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, O‘zbekiston**
- **Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston**
- **Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston**

Uchrashuv natijalariga ko'ra, mexatronika va robototexnika yo'nalishi rivojlangan mamlakatlarda ta'lim uchun o'quv dasturlarini tayyorlash va tahlili, yangi magistratura dasturini ishlab chiqish, yangi kurslar yaratish va O'zbekiston o'qituvchilari, ishchilari va muhandislari uchun treninglarni tashkil etish, shuningdek yangi vazifalarni belgilash masalalari muhokama qilindi. va keyingi yig'ilishlarni tugatish vaqti.







---

# "IndiaSoft-2020" va

# ”GlobalSoft-2020” xalqaro AKT ko’rgazmasi va konferentsiyasi.

Joriy yilning 3-4 mart kunlari Hindistonning Haydarobod shaxrida bo`lib o`tagan “IndiaSoft-2020” va “GlobalSoft-2020” xalqaro konferensiyasi va kurgazmasi bo`lib o`tdi.

Ushbu koferensiyada Hindistion va bir qator boshqa davlatlar o`zining Axborot Texnologiyalaridagi oxirgi innovatsion yangiliklari va tajribalari bilan ulashdi.

Tadbirda 200 dan ortiq  Axborot texnilogiyalarga oid kompaniyalar dunyoning 60dan ziyot davlatlaridan kelgan delegantlar bilan ucharshib, ularga o`z faoliyatlaridan kelib chiqib eng oxirgi texnologiya yangiliklari haqida  ma`lumotlar berdi.

Ushbu davlatlar orasida O`zbekistondan ham 19 ta delegant ishtirok etdi. Quvonarlisi ushbu delegantlar orasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti o`qituvchi va talabari ham borligidir. Aniqroq ayatadigan bo`lsak, Universitetimiz Professori Muslimbek Pirnazarov, talabasi Ergashov Jamshid va shuningdek universitetimizni tugatib, o`z sohlarida ish olib borayotgan Zohid Akbarov, Suhrob Shakirov, Begzod Xujanazarovlar ishtirok etishdi.

Ushbu konferentsiya va ko’rgazmada qatnashib kelgan universitet talabasi Jamshid Ergashov shunday dedi: “Shu ikki kunlik tadbir davomida, ko`plab kompaniya rahbarlari, dasturchilari bilan suhbatda bo`ldim. Ular bizga o`z dasturiy yechimlarini taklif etishdi.

Xususan, “World1 Solutions -IT consuting and education” va “Radius innovation systems”lar bilan kelishuvda ular tomonidan IT sohasidagi ta`limga berilgan yechimlar menga ma`qul bo`ldi

va ushbu korxona vakillarini universitetimiz mehmoni bo`lishlariga taklif qildim.

Ular aytgan “Softwere is eating the world” iborasi menga katta ta`surot qoldirdi. Dunyo bozorida dasturiy ta`minotning ulushi juda tez o’sib bormoqda.

Bunday vaziyatda biz yoshlar chetda jim qarab turishmiz noto`g`ri, biz qimmatli vaqtimizni dasturlashni o`rganishga va uni hayotda qo`llashga harkat qilishimiz lozim.

Ushbu tadbirda ishtirok etishga yordam bergan universitetimiz ma`muriyati va  o`zim faoliyat yuritayotgan “Carwon” jamoasiga o`z minnatdorchiligimni bildiraman.”











# Unlock Tours loyihasi bo’yicha ikkinchi sayohat

Joriy yilning 10 mart kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining “Unlock” loyihasi tomonidan eng yirik maishiy texnika ishlab chiqaruvchi Artel kompaniya zavodiga navbatdagi safar tashkil etildi.

Tanlovda qatnashqan 110dan ortiq ishtirokchilardan 45 nafari Artel zavodiga borib, fabrikaning eng katta tarmoqlaridan biri – maishiy texnikalarning termoplastik detallarini ishlab chiqarish va kir yuvish mashinalari va muzlatgichlarni yig’ish sektorlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo’ldilar.

Yo’lboshchilar va zavod ma’muriyati konveyer jarayonining tafsilotlarini, jihozlarning ishlash printsiplarini tushuntirdilar va talabalarning ko’plab savollariga javob berdilar. Qiziqarli ekskursiya hech bir talabani befarq qoldirmadi. Ayniqsa, mahalliy mayishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi talabalarda katta taassurot qoldirdi.

Artel maishiy texnika zavodi ma’muriyati, yo’lboshchilari va Unlock loyihasi jamoasiga fabrika faoliyati bilan tanishish va mayishiy texnika ishlab chiqarish sohasida bilim olish imkoniyatini yaratib berganlari uchun minnatdorchiligimizni bildiramiz.













# “QIZLAR DAVRASI-2020” ko‘rik-tanlovi

Ayollarni, qizlarni bahorga qiyoslashadi, bahorni ularga. Go‘zallik, nafosat, yangilanish bahor va ayol tushunchalarida uyg‘unlashib ketadi. Ayollarimizning oilada tutgan o‘rni beqiyos. Oqila, go‘zal ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

Mamlakatimiz xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, salomatligini mustahkamlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish davlatimiz siyosatiga aylangan.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti ham talaba-qizlarni har sohada iqtidorini sinab ko‘rishi uchun imkoniyat yaratib “QIZLAR DAVRASI-2020” ko‘rik tanlovini tashkil qildi. Ko‘rik-tanlovni adolatli baholash uchun o‘z ishining ustalari, tegishli soha mutahasisslari
**– “Avtoradio” direktori – Kamola Ermatova**
**– “Banquette hall” restorani direktori – Dilnoza Sharipova**
**– Innovasion rivojlanish vazirligi qoshidagi Innovasialarni joriy etish markazi bosh ilmiy xodimi- O‘lmas Zoirov**
**-“S-class” salonining stilistlari**
**– “Anor” brend asoschisi va bosh dizayneri, yosh dizaynerlar kengashi raisi – Dilnoza Umirzokovalar taklif qilindi.**

Ishtirokchilar 5 ta shart bo‘yicha o‘z qobilyatlarini namoyon qilishdi.
**– “Ko‘zgudagi men”**
**– “Pazandachilik sirlari”**

**– "Mening innovasion g'oyam"**
**– "Men stilistman"**
**– "Men podiumda"**

Universitet qizlarining eng faollari – epchilligu chaqqonlikda, pazandalikda, zukkolik va bilimda o'zlarining boshqalardan ustun ekanliklarini bildirish maqsadida bellashdilar.

Ishtirokchilar xar bir shart bo'yicha xakamlar xayati tomonidan baxolab borildi. Talabalar o'rtasidagi "QIZLAR DAVRASI-2020" musobaqasi natijalariga ko'ra birinchi o'rin birinchi kurs talabasi Ozodova Shaxrizodaga taqdim etildi. Har bir ishtirokchiga universitet tomonidan diplom va sovg'alar taqdim etildi.

Bunday tadbirlar qizlarimizning har tomonlama barkamol, milliy urf-an'analarimizdan boxabar voyaga yetishlarida katta ahamiyatga ega. Qizlarimizning sharqona odobi, ibo-hayosi, momolar udumlaridan xabardorliklari ularning kelgusida yaxshi turmush o'rtog'i, oila bekasi, ona bo'lib voyaga yetishlari, ular kelajak oila jamiyatimizning mustahkam poydevoriga munosib hissa qo'shishidan darakdir.









---

# Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti Yaponiyaning Xiroshima universiteti va Balcom kompaniyasi bilan hamkorlik aloqalarini oʻrnatdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-dekabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi va Yaponiya oʻrtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4553 son qarorining ijrosini taʼminlash maqsadida, 2020 yil 18-21 yanvar kunlari Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti rektori U.Salomov va universitet Xalqaro aloqalar boʻlimi boshligʻi J.Abdujalilov Yaponiyaning Xiroshima shahriga tashrif buyurdi.

2020-yil 19-fevral kuni Xiroshima universiteti prezidenti Mitsuo Ochi bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda hamkorlik aloqalarini o‘rntaish bo‘yicha Akademik va ta’lim almashinuv Shartnomasi imzolandi.

Xiroshima universiteti vise-prezidenti Yasushi Maruyama va Muhandislik fakul’teti dekani Professor Atsushi Sugeta, Xalqaro ishlar qo‘mitasi boshlig‘i Professor Toru Takashina bilan uchrashuvda Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti talabalari Xiroshima universitetida magistraturada tahsil olishi, professor-o‘qituvchilar almashinuvi, hamkorlikda ilmiy-tadqiqotlar olib borish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Shuningdek, kelgusida ikki tomonlama tibbiyot fanlari nomzodi darajasini berish bo‘yicha qo‘shma dasturni joriy etish kelishib olindi.

Balcom kompaniyasi bilan hamkorlikda Toshkent shahridagi Turin Politexnika universitetida mutahassislar tayyorlash markazini tashkil etish bo‘yicha Shartnoma imzolandi. Ushbu markazning maqsadi Yaponiyaning nufuzli kompaniyalari bilan tajriba almashish, universitet bitiruvchilarini malakasini oshirish va global mehnat bozorida raqobatlasha oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida texnik ko‘nikmalarni o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, markazni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar kelgusida Yaponiya hududidagi xalqaro kompaniyalarda malaka oshirish uchun yuborilishi ta’minlanadi.

Shuningdek, universitetning iqtidorli talabalariga Xiroshima universitetida magistraturada tahsil olish uchun Balcom kompaniyasi tomonidan grant dasturi joriy etiladi.

Xiroshima universitetining akademiya-industriya hamkorligi bo‘yicha tajribasi Treining markazga joriy etiladi va uch tomonlama faoliyat olib boriladi.







---

# Islomda ekstremizm va terrorizmga o‘rin yo‘q!

Mamlakatimizda muqaddas dinimiz sofligini saqlash, islom madaniyatini rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ allomalarning ilmiy merosini o‘rganish, yangi masjid-madrasalar barpo etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda, afsuski, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarish yo‘li bilan o‘z maqsadlariga erishishni ko‘zlaydigan kuchlar bor ekan, sun’iy ravishda nizoli vaziyatlarni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlar ham to‘xtamaydi. Zero, g‘oyalar kurashi avj olgan XXI asrda ham tinchlik ne’mati ko‘plab mamlakatlar uchun hamon orzu bo‘lib qolmoqda. Bunga 2011-2016 yillarda ba’zi arab mamlakatlarida

ro‘y bergan va hamon davom etayotgan siyosiy inqirozlar oqibatida yuzaga kelgan qonli to‘qnashuvlar misol bo‘la oladi. Mazkur davlatlarda bo‘lib o‘tgan xunrezliklar, go‘yoki «arab bahori» nomi bilan begunoh odamlarning yostig‘ini quritayotganlar ham asosan dinni niqob qilib olgan kuchlar ekani, ular ekstremistik oqim va terroristik guruhlardan foydalanayotgani ham hech kimga sir emas.

Joriy yilning 20-fevral kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida “Islomda ekstremizm va terrorizmga o‘rin yo‘q” va “Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xuruji”.mavzularida davra suhbati o‘tkazildi.

“Yoshlar bilan ishlash” bo‘yicha prorektor Alisher Ashurov tadbirni kirish so‘zi bilan ochib berdi.Diniy ekstremizm va terrorizmning jahon hamjamiyatiga solayotgan tahdidi, bu kabi illatlardan yoshlarni asrash, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizni asrab-avaylash masalasida to‘xtalib o‘tdi. Diniy-ekstremistik tashkilotlar o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikasiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ‘ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida mutaassiblikka yo‘g‘irilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Shuningdek, mobil messenjerlarning ijtimoiy tarmoqqa ko‘prik vazifani o‘tab berayotgani, ularning ishini ancha yengillashtirmoqda.

Ushbu tadbirni o‘tkazishdan maqsad yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishga harakat qilayotgan turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, zarur vaqtda ana shunday kuchlarga qarshi ma’rifat ilmi bilan qarshi kurashish kerakligini tushuntirishdan iborat.

Keyingi so‘z navbati O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi o‘qituvchisi Dilafruz Turdievaga berildi. Dilafruz Turdieva o‘z so‘zida, bugungi kunda dunyo davlatlarini tashvishga

solayotgan diniy ekstremizm va terrorizm kundan-kunga yangicha ko‘rinishga kirib borayotganligi, islom dinini niqob qilib olgan qator terroristlik tashkilotlar haqida batavsil ma’lumotlar berib, jumladan terroristlik tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan qator harakatlarni misol qilib ko‘rsatdi. Shuningdek, dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan din niqobi ostida faoliyat yuritayotgan turli diniy ekstremistik tashkilotlarning yoshlarni aldov yo‘li bilan o‘z saflariga qo‘shib olayotganidan kelib chiqib, talaba-yoshlarni bunday guruhlar tahdididan doimo ogoh va hushyor bo‘lishga da’vat etdi. Terroristlik tashkilotlarning internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarda faolligi sababli internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda juda ehtiyotkor bo‘lish kerakligini alohida ta’kidlab o‘tdi. Internet fan-texnika taraqqiyot evolyusiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o‘rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o‘zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan eng ko‘p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanar ekan. Yurtimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur’atlar bilan kengayib bormoqda dedi Dilafruz Turdieva.

Davra suhbati so‘ngida talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarni berib mutahassis tomonidan kerakli hulosani olish imkoniyatiga ega bo’ldilar.







---

# Buyuk shoirlarni xotirlab…

Yurtimizda fevral oyida  tavallud topgan ikki buyuk bobakalonimiz she’riyat mulkining sultoni, o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hamda buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi barcha ilm dargohlarida  keng nishonlanmoqda. Jumladan, joriy yilning 13 fevral kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida ham “Buyuk shoirlarni xotirlab” nomli ijodiy kecha o‘tkazildi.

Tadbirga o‘zbek dublyaj san’atiga katta hissa qo‘shgan, 1000 dan ortiq filmga ovoz bergan, O‘zbekiston xalq artisti, taniqli notiq Afzal Rafiqov mehmon sifatida taklif etilgan. Shu bilan birga Toshkent shahridagi Turin politexnika

universiteti huzuridagi akademik lisey o‘qituvchi va o‘quvchilari, universitet xodimlari, professor-o‘qituvchilar va talabalar ishtirok etishdi.

Tadbirni “O‘quv ishlari” bo‘yicha prorektor Igor Semone Stievano ochib berdi. Igor Semone Stievano talaba-yoshlarga Navoiy va Bobur hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishib chiqqanida, ularning badiiy-ilmiy merosi, mamlakatimizda ulug‘ ajdodlarga ko‘rsatilayotgan ehtirom, shoir asarlarining navqiron avlod tafakkurini boyitishdagi o‘rnini ko‘rib xayratga tushganini va ularga cheksiz hurmatini ta’kidladi. Nutqi so‘ngida Alisher Navoiyning g‘azalini ingliz tiliga tarjima qilinganini aytib berdi.

Tadbirning badiiy qismini iqtidorli talabalar tomonidan aytilgan, ma’naviyat va adabiyotning so‘nmas siymolari Mir Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur qalamlariga mansub g‘azal va ruboiylardan bilan boshlandi.

Daholarning bebaho asarlari ma’naviy teranligi hamda badiiy yuksakligi bilan bashariyat mulkiga aylangan. Talabalar tomonidan sahnalashtirilgan Uyg‘unning “Alisher Navoiy” drammasi, Xurshid Davronning “Boburshox” spektaklidan Boburning munojoti sahnasidan parcha ijro etilgani barchani e’tiborini qozondi. Ushbu spektakllarda asarlarining mazmun-mohiyati, badiiy hususiyati, teran falsafasi, tarbiyaviy ahamiyatini chuqur singdirish, yoshlarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat va o‘zaro hurmat tuyg‘ularini mustahkamlashdagi beqiyos ahamiyati aks ettirilgan.

Tadbirning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, universitet xodimlari, professor-o‘qituvchilar va talabalar tomonidan Mir Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Boburning oltin merosiga bag‘ishlangan videorolik taqdim etildi.

Ijodiy kechaning muhim mehmoni Afzal Rafiqovga so‘z berildi. U Mustaqillik tufayli siz yoshlarga shunday buyuk

bobolarimizning merosini o‘rganish baxti nasib etdi. Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Boburning ibratli hayoti, serqirra ijodi, ilm-fan rivoji yo‘lidagi olamshumul ishlari bugun ham jahon ahlini hayratga solmoqda. Asarlarida tarannum yetilgan inson ruhiyatining go‘zal badiiy ifodasi, ma’naviy kamolot, tinchlik va farovonlik, millatlararo totuvlik, yurt obodligi kabi g‘oyalar barchamizga dasturi amal bo‘lib hizmat qilmoqda.

Ularning hayot va ijodlarini qancha o‘rgansak kam. G‘azallari-yu, dostonlarini o‘rganar ekanmiz, ijodlariga bo‘lgan muhabbat tobora oshib boradi. Men ham Navoiy bobomizning ro‘llarini ijro etkanimda, o‘zimda katta ishonch va g‘urur bilan paydo bo‘ladi. Mana shunday bobolarimizning davomchilari ekanimdan faxrlanaman dedi. Dublyaj qiroli “Hamsa”ning “Sadiy Iskandariy” dostonidagi ijod namunasi bilan o‘z so‘zini yakunladi.

Tadbir talaba-qizlar ijrosidagi “Tanovar” raqsi bilan davom etdi.

Ijodiy kechaning yakuniy qismini “O‘quv-uslubiy va ilmiy” bo‘lim boshlig‘i Sultonov Mansur Qilichovich tugatdi va barcha kelgan mehmonlarga, tadbirni mana shunday yuqori saviyada o‘tishida o‘z hissasini  qo‘shgan universitet jamoasiga minnatdorchiligini bildirdi.











